



FIQNING KELIB CHIQISHI VA UNING SHAKLLANISHI

Asaboyev G‘ayratjon

UNIVERSITY OF BUSINESS SCEINCE

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillikdan keyingi davrda musulmon huquqshunosligining ilmiy jihatdan qayta tadqiq etilishi, uning jahon huquqiy tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, islom fiqhining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, asosiy manbalari (Qur‘on, Sunnat, ijmo, qiyos) hamda ularning huquqiy tizim sifatidagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Maqolada fiqh ilmining tarixiy rivoji, turli fiqhiy maktablar, xususan, Hanafiy mazhabining shakllanishi va taraqqiyoti hamda Markaziy Osiyo, ayniqsa Farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan fiqhshunos olimlarning ilmiy merosi keng yoritilgan. Tadqiqot natijasida islom huquqining zamonaviy huquqiy-demokratik jamiyat qurilishidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Islom huquqi, fiqh, Qur‘on, Sunnat, ijmo, qiyos, Hanafiy mazhabi, musulmon huquqshunosligi, fiqh manbalari, fiqhiy maktablar, Markaziy Osiyo, Farg‘ona vodiysi, Marg‘inoniy, huquqiy tizim, demokratik jamiyat.

KIRISH

Mamlakatimiz istiqlolga erishganidan so‘ng jamiyatimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi fanning ham turli yo‘nalishlarida holisona tadqiqot ishlari olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu jumladan, ijtimoy fan sohalarida, ayniqsa, mazkur sohaning tarkibiy qismi bo‘lgan huquqshunoslikda ham ilgari, ya‘ni sobiq sovet ittifoq davrida ta‘kiklangan yohud o‘rganilgan taqdirda ham masalaga ilmiy yondashishdan ko‘ra, unga reaksiyon huquqiy ta‘limot sifatida salbiy bo‘yoq berilgan musulmon huquqshunosligi mustaqillik tufayli ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlanadi.

Mazkur huquqiy ta‘limot jahon huquqshunosligining muhim tarkibiy qismi sifatida Baholansada, mustaqil ahamiyatga ega ta‘limot o‘laroq, boshka huquqiy ta‘limotlardan ajralib turadi. Fikrimizning isboti sifatida 1938-yil Gollandiyaning Gaaga shahrida “qiyosiy huquqshunoslik” bo‘yicha bo‘lib o‘tgan xalqaro anjuman tomonidan chiqarilgan bayonnomaga ishora qilmoqchimiz. Mazkur anjuman ishtirokchilari, bir ovozda bayonnomani qabul qilgan holda, islom huquqiga katta





e'tibor berib, uning mustaqil huquqiy tizim sifatida boshqa huquqiy tizimlardan olinmaganligi, har doim hayot jarayoni bilan hamoxang harakat qilish imkoniyatiga ega ekanligi, hamisha qonun yaratish sohasida, undan bir huquqiy manba sifatida foydalanish mumkinligini tastiqlash edilar.

Shu manoda musulmon huquqiy tizimi boshqa huquqiy talimotlardan farqli o'laroq, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishda insonning shaxsiy muammolaridan tortib, fuqorolik huquqi, davlat huquqi, xalqaro huquq va shu kabi masalalarda birlamchi manbalar Qur'on va sunnatga tayanib ish ko'radi. Bunda u shaxsning oddiy his-tuyg'ulardan tortib, huquqning barcha jihatlarini Qur'on va sunnatga mos kelishi yoki kelmasligidan kelib chiqib belgilaydi. Shunday ekan, musulmon huquqi, ya'ni barcha fiqhiy masalalarni bugungi axborotlashgan jamiyatga qay darajada dolzarb ahamiyatga ega ekanligini aniqlash uchun uni shunchaki, yuzaki tadqiqotlar orqali o'rganib bo'lmasligi, balki naqadar mukammal va murakkab tizim ekanligini hisobga olgan holda uning genezisidam tortib, to zamonaviy ahamiyatga chuqur izlash va tadqiqotlarni to'lab o'tkazish orqaligina biz yechimini kutayotgan masalalarni ilmiy drajada hal etish mumkin[1]. Shu manoda, biz ham mazkur magistrlik diplom ishi orqali yuqorida takidlaganimiz masalalarni tadqiq etishda Hanafiy mazhabining amaliy hayotda o'z ifodasini topishda asosiy vazifani bajargan alloma Imom Abu Yusuf shaxsiyati va ilmiy-amaliy faoliyatidan birlamchi manba sifatida foydalanildi.

Imom Abu Yusuf shaxsiyati va ilmiy-amaliy faoliyatini tadqiq etish, albatta, musulon huquqini, xususan fiqhni kelib chishishi, shakllanish bosqichlarini, shuningdek, ilk fiqhiy maktablarni, jumladan, Hanafiylikni chuqur o'rganishni va uning har bir jihatlariga sinchkovlik bilan nazar solishni taqozo qiladi.

Fiqh musulmon davlati bo'lmish xalifalikning tarix maydoniga kelishi, Islomning paydo bo'lishi bilan bir zumda shakllanib qolmagan. VIII asrning birinchi yarmigacha xalifalikning ijtimoiy me'yorlar tizimi, shu jumladan axloqiy qonun qoidalar ham to'laligicha islomiy talablardan iborat bo'lmasdan, asosan islomdan ilgarigi vujudga kelgan va yangi tarixiy sharoitga moslashib kelayotgan meyorlardan iborat edi. Agar arablar tomonidan fath qilingan yerlardagi ilgaridan mavjud bo'lgan huquqiy me'yorlar va odatlar yangidan kirib kelatgan va o'zining huquqiy masalariga birmuncha e'tiborsizlik qilayotgan islomning talablariga zid kelmayotgan bo'lsa, ular biron-bir o'zgarishsiz saqlanib qolavergan.





ADABIYOTLAR TAHLILI V METODLAR

Tarixga nazar solsak, Umaviillar sulolasi zamonida hokimyat masalasida dunyoviy va diniy doiralar orasida kelishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lgan. Buning natijasida huquqshunoslik masalalarini amaliy hayot talablariga joriy etish birmuncha qiyinlashadi, o'ziga xos muammolar, to'siqlar paydo bo'ldi[2].

Abbosiyalar davriga kelib esa bu yo'nalishda burilish ro'y beradi. Agar avvalgi xalifalar siyosiy hokimiyat masalsida ko'prok dunoviylikka moyillik bildirishgan bo'lsa, Abbosiylar diniy hamda dunoviylikni barobar olibborishga intilishadi. Ular Umavilarga qarama-qarshi o'larok, diniy doiralar, diniy arboblardan bilan yaqin aloqalar o'rnatishdi. Bu bilan esa Abbosiylar o'zlarining hukmronligiga diniy-huquqiy tus berishdi. Mazkur voqealar asnosida Qur'on va hadislarining ahamiyati yanada ko'tarilib ketdi. Chunki ularni o'rganish faqat e'tiqod masalasi bo'lib qolmay, balki ularni amalda qo'llash imkoniyati ham tug'iladi. Endi huquqshunoslik ilohiy qonunga muvofik ravishda tezlik bilan rivojlana boshladi va huquqshunoslikning bunchalik tez rivojiga olib borilgan fatxlari ham sabab bo'ldi.

Fiqhning paydo bo'lishiga bir tomondan amalda qo'llanilayotgan huquqiy normalar, turli ijtimoiy talablarni diniy dunoviy qarashga asoslangan normalar bilan muvofillashtirish sabab bo'lgan degan fikr ham yo'q emas. Negaki, bunday kuchli tizimning qisqa muddat ichida shakllanib ulgurishi mumkin emas deganlar ham topiladi. Boshqa bir tomondan esa davlat diniy tizimida yangidan vujudga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni islomning diniy-alohiy ta'limotiga suyangan holda idora etish zarurati ham bo'lgan. VIII–IX birinchi yarmida fiqhda tushunchalar bazasi, o'ziga xos ifoda – til va uslubi shakllanadi. Fiqh paydo bo'lishining ilk davridayoq ikki yo'nalish maydonga chiqib boshlaydi. Ulardan biri Iroq maktabi bo'lib, uni yana “mustakil fikr yuritish tarafdorlari (as'hob-ar-ra'y)” deyishgan. Ikkinchi – Madina maktabini esa “hadis tarafdorlari (as'hobul-hadis)” deyishgan. Ular orasidagi farq maktablar o'z aqidalarini rivojlantirgan moddiy va madaniy sharoit xususiyatlari hamda ularga meros bo'lib qolgan huquqiy an'analar bilan belgilangan.

“Fiqh” atamasi etimologik, xususiyatiga ko'ra arabcha so'z bo'lib, lug'atda faxm qilmoq, ya'ni anglamoq va tushunmok ma'nosida ishlatiladi. Lekin fiqh fahm, anglamoqdan shunisi bilan farqlanadiki, bunda u biror narsani ichki mazmuni va mohiyati tushunib olish ma'nosida qo'llaniladi. Shu manoda, islom tarixida “fiqh”ni birinchi bo'lib, ilmiy asosda ta'riflagan shaxs Abu Hanifa No'mon ibn Sobit





hisoblanadi. Uning fikricha, «fiqh ilmi har bir mukallaf kishining o‘z foydasiga va zarariga bo‘lgan narsalar haqida sharoit xukumlarini bilib olishidir»[3].

Abu Xanifaning ushbu ta’ri shariat ilmlari shakllanib, har biri muayyan bir yo‘nalish kasb etib, bir-biridan ajralmagan bir davrda aytilgani sababli u e’tikod va axloq ilmlarini ham qamrab olgan. Lekin keyinroq axloq va e’tiqodga tegishli me’yorlar har qaysisi muayyan bir ilm yo‘nalishi sifatida fiqhdan ajrala boshlab, kalom ilmi va ilmi axloq nomlari bilan alohida fanlarga aylangan. Fiqh esa faqat axkomi fariya va uni o‘rganish uslubini o‘z ichiga kamrab olgan. Shuning uchun ham keyingi davr faqihlari Abu xanifa ta’rifiga “amaliy jihatdan” so‘zi qo‘shilishini zarur deb topganlar. Imomi Shofiy ta’rifiga ko‘ra, “fiqh shariatning amaliy adillai tafsiliyadan (asosiy manbalaridan) chiqarib olishdir”.

Umuman olganda, dunyoning eng rivojlangan xuquxiy tizimlaridan biri bo‘lmish fiqh va uning qonunlari mukammal shaklda tartibga solinib to‘plangan. Shu jihatdan, islom fiqhi birdaniga Yuzaga kelib takomil bosqichiga ko‘tarilmagan. U bir diniy qonun sifatida birinchidan ilohiy vahiy, ya’ni Qur’on, undan so‘ng paygambar alayhisalom sunnatlariga asoslangan. Ijmo va qiyos Qur’on va sunnada ochiq-oydin shariat manbalari qatorida zikr etilmagan bo‘lmasa ham, bu ikki tushunchaning rivojlanishi oqibatida, islom qonunchiligining ikki manbai darajasiga ko‘tarilishi ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda sunniylik huquqiy maktablarining asoschilari bo‘lmish imomlar ijtihodining natijasi bo‘lgan. Shunday qilib islom fiqhi (ya’ni islom shariati qonunlari majmuasi) o‘zinning barcha asosiy manbalariga ega bo‘lganidan keyin har tomonlama rivojlana boshlagan. Ayni paytda turli xalqlarning shariatga zid bo‘lmagan urf-odatlaridan foydalangan holda o‘z tarakkiyot pog‘onariga ko‘tarilgan.

Lekin shu narsani nazardan soqit qilmaslik kerakki, musulmon fiqhshunosligini turli o‘lka xalqlari urf-odarlaridan foydalanishi ushbu tizimni nomukammaligidan emas, balki mazkur huquqiy tizimni barcha zamonlarda barcha insonlar, elatlar, va xalqlarni birday ehtiyojini qondirish bilan birga zamon bilan hamnafas yashovchanligidan dalolat beradi. Musulmon ulamolari shariat hukmlarini (qonun-qoidalarini) Qur’on va hadisdan kelib chiqib belgilash bo‘yicha ilk kunlardan boshlab keng ko‘lamli faoliyat olib borganlar.

Keyinchalik esa, islomiy fiqhning asosiy manbalari buyuk fikix ulamolar tomonidan yakdillik bilan to‘rtta deb tan olingan. Usulul fiqhda manbalar “adilla” (dalillar) yoki “adillai tafsiliya” (tafsiliy dalillar) atamallari bilan ifodalanadi. Islom





huquqi (fiqhi) birinchi va asosiy manbai Qur'oni karim yigirma uch yil risolat davri (610–632-yillar)da Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga Alloh tomonidan nozil qilingan. Ushbu birlamchi va asosiy manbada fiqhiy masalalar keng ko'lamda yoritib berilgan. Unga ko'ra, quyidagi sohalarda oyatlar mavjud:

- Hakkulloh (amaliy isxoddatlar) bo'yicha 140-oyat;
- shaxsiy huquq (oila, talok, vasiyat va boshkalar) 70-oyat;
- muomalot yoki fuqarolik huquki (oldi-sotdi, ijara, garov, karz, shirkat va boshkalar) bo'yicha 70 - oyat;
- jinoyat va jazo (ukubot) bo'yicha - 30 oyat;
- qoziyot ishlari (sud va sud jarayoni, ya'ni guvohlik va unga boglik masalalar) bo'yicha - 20 oyat.

Bizning fikrimizcha esa, davlat huquqi soxasida 3 oyat, hammasi bo'lib, Qur'oni karimda 333 ta fiqhiy (huquqiy) oyatlar mavjud. Qur'onning boshka ilohiy kitoblardan asosiy farqi shundan iboratki, u faqat aqidaviy manba emas, balki qonun va axloq hamdir.

Islom fiqhining ikkinchi asosiy manbai Sunnatdir. U fikriy – huquqiy atama sifatida Payg'ambar alayxissalomning so'zlari, fellari (ammallari) taqirlari, ya'ni tasdiqlari, shuningdek, sahobalarning so'zlari va amallari majmuidan iboratdir. Shu manoda, Sunna islom huquqining Qurondan keying ikkinchi manbi sifatida qonun tuzishsalohiyatiga ega. Payg'ambar alayhissalom Qur'onning mukammal va mufasal shorihi sifatida qonun tuzish vakolatiga ega bo'lgan. Shunga binoan Sunna tashri' (qonun tuzish) bo'yicha ikki asosiy sohani qamrab oladi:

- birinchi soha Qur'onda zikr etilgan hukmlarni yoritib berishga bog'liqlik;
- ikkinchi soha Qur'onda ko'rsatilmagan hukmlarning qonuniy shaklda chiqarishiga bog'liq bo'ladi[4].

Islom fikchininga uchinchi manbai ijmo hisoblanadi. U etimologik xususiyatiga ko'ra, fiqhiy termin sifatida “ijmo odillik sifati va mujtahidlik malakasiga ega bo'lgan bir davr olimlarining muayyan hukmlar bo'yicha kelishuvidan iboratdir”. Umumiy ma'noda, ijmo ikki qismga bo'linadi:

- ijmoul-umma (ummat ijmoi), ya'ni musulmon jamoasining kelishuvi;
- ijmoul-aimma (Imomlar-olimlar ijmoi), ya'ni ummat imomlari bo'lmish fiqh ilmining buyuk ulamolari kelishuvi.





Umuman olganda, ijmoğa oid ko‘plab hadislar vorid bo‘lgan. Bunga Payg‘ambar alayhissalomning quyidagi hadislarini keltirish mumkin. Hazrat Ali karamallohu vajxaxu Rasululloh (s.a.v)dan: “Qur‘oni karim va hadisi sharifda hukmi bo‘lmagan biron ish sodir bo‘lsa, nima qilamiz?” deb so‘raganlarida Rasululloh (s.a.v): “Mo‘minlardan bo‘lgan olimlarni to‘planglar-da, o‘zaro maslahat qilinglar, bunday ishda bir kishining fikri bilan hukm chikarmanglar” dedilar. Shu va shunga o‘xshash hadislar ijmoning shar‘iy asosga ega ekanligi bilan birga islom huquqini har doim hayot jarayoni bilan hamohang harakat qilish imkoniyatiga egaligini ko‘rsatadi.

Islom huquqining to‘rtinchi manbai qiyosdir. Qiyosning istilohiy ma‘nosi solishtirish va takkoslash bo‘lib, huquqiy atama sifatida hukmi vorid bo‘lmagan masalani Qur‘on va hadisda shu masalaga o‘xshash bo‘lgan va Hukmi kelgan narsaga qiyoslab hukm chiqarish. Masalan, Quronda hamr harom qilingan. “Hamr” deganda esa, osha vaqtda uzum, arpa, asal, xurmo kabi narsalarni achitish yo‘li bilan olinadigan mast qiluvchi ichimlik tushunilgan. Ulamolar shunga qiyoslab, ulardan boshqa narsalardan tayyorlangan mast qiluvchi ichimliklarni ham harom deb hukm qilishgan. Demak, qiyos hukmi aytilmagan narsaning shar‘iy hukmi mavjud narsa bilan hukm olish illatida (sababida) bir bo‘lmoqligi va shunga o‘xshatilmoqligidir.

Ushbu zikr xilingan fiqhning to‘rtta asosiy manbasidan tashkari faqihlar suyanadigan yana ba‘zi manbalar ham borki, bu borada usuli fiqh kitoblarida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Tadqiqotlarning qamrovi bunga imkon bermaganligi sababidan qisqacha to‘xtaldik.

Islom fiqhining kelib chiqishi va shakllanishi to‘g‘risida so‘z ketganda shuni takidlash joizki, fikixning etimologik xususiyatlari, uning asosiy manbalari xaqida yuqorida ko‘rsatib o‘tishga harakat qilindi. Endi uni davriligi nuqtai-nazaridan tahlil etadigan bo‘lsak, fiqhning shakllanish jarayoni quyidagicha davriylashtirish mumkin:

- Payg‘ambar alayhissalom davrlaridagi fiqh;
- Sahobai kiromlar (r.a) drudagi fiqh;
- Tobeynlar va ulardan keyingilar (r.a) davridagi fiqh.

Shu yo‘sinda ikki-uch asr ichida islom fiqhi rivoj topib, o‘z takomil darajasiga yetgan. Kezi kelganda shuni ta‘kidlash kerakki, mazkur davriylashtirish fiqhni ilmiy tadqiq etish borasidagi yagona usul deb bo‘lmaydi. Qolaversa, zamonamizning mashhur ulamolari tomonidan islom fiqhini o‘rganish yuzasidan turli-tuman ilmiy





uslublarni taklif etmoqdalar. Ularning fikricha, islom qonunchiligini asosiy qismi bo‘lmish islom fikixi (huquqiy)uslublarda o‘rganish mumkin:

– ilmiy uslub bunga ko‘ra, fiqhning tub mohiyatiga yetib borish uchun uning asosiy manbalari, islom huquqi metodologii, fiqhii maktablarning yuzaga kelishining omillari, fiqhii hukmlarning falsafii tomonlarini ochib berish bilan birga fiqhii nazariyalarning amaliy hayot bilan uyg‘unlashuvi ko‘rsatildi;

– tarixiy uslub – bunga ko‘ra islom fiqhini yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari, turli mazhablarning vujudga kelishining ijobiy va subyektiv omillari tarixiy manba va hujjatlarga asoslanib o‘rganiladi;

– qiyosiy uslub – ushbu metoddan maqsad, islom fikixini oshqa huquqiy tizimlar solishtirib o‘rganib, bir-biridan tasirlangani yoki bir-biriga tasir o‘tkazganligi, shunigdek o‘xshash va farqli tomonlarini ochib berish;

– dogmatik uslub mazkur uslub asosida islom fiqhii ta‘limoti ijtimoiy-siyosiy va iktisodiy shart-sharoitdan ayro holda ajratib olinib o‘rganiladi. Ushbu metod islom fiqhining talqin va tadbiiq qilishning eng salbiy ko‘rinishi hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ma‘lumki, XI-XIII asr boshlarida O‘rta Osiyo ilm-fan taraqqiy etgan hududlardan biri hisoblangan. Ushbu hududda madaniyatning rivojlanishida Qoraxoni (992-1212), Saljuqiy (1038-1194) va Xorazmshohlar (1097-1231) davlatlarining hukmdorlari yuritgan siyosati muhim o‘rin tutgan. O‘sha davrda O‘rta Osiyoga mintaqaning turli joylaridan kelgan olim va ulamolar faoliyat yuritgan bo‘lib, bular orasida farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan fiqhshunos olimlar ham bo‘lgan. Ushbu davrda davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni olib borilishi va mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy barqarorlikni ta‘minlanishi, Markaziy Osiyoda yirik madaniy markazlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan. Buni biz mintaqadagi Samarqand, Buxoro, Kesh, Marv, Urganch va boshqa shu kabi madaniy markazlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Qoraxoniylar sulolasi davrida Movarounnahr O‘rta Osiyoning taraqqiy etgan madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Bu vaqtda Movarounnahrda ilm-fanning turli sohalari kabi fiqh ilmi ham rivojlangan bo‘lib, bu yerda maxsus fiqh maktabi shakllangan[5]. Ushbu maktabda boshqa fiqhshunos olimlar bilan bir qatorda Farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlar ham faoliyat olib borganlar. Jumladan, Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Marg‘inoniy (vaf. 477/ 1085), Hasan ibn Mansur ibn Mahmud





Faxruddin Qozixon al-O'zgandiy al-Farg'oniy (vaf. 592/ 1196), Abu-l-javd Ato ibn Axmad ibn as-Sodiq al-Xolidiy al-Kosoniy, Muhammad ibn al-Hasan Burxoniddin al-Kosoniy (vaf. XII), Bakr ibn Sulaymon ibn Imron ibn Ilyos al-Kosoniy (vaf. 513/1120 yildan keyin), Al-Amir al-imam Abu-l-Ma'ali Qays ibn Is'hoq ibn Muhammad ibn Amirak al-Marg'inoniy (vaf. 526/ 1132) va Abu Ali al-Husayn ibn Ali ibn Abu-l-Qosim al-Marg'inoniy al-Farg'oniy (441/1049-522/1128) kabilardir[6].

XI asrdan boshlab Movarounnahr fiqh maktabining udumlari asosida Marv va Xorazm fiqh maktablari vujudga kelgan[7]. Xususan, saljuqiylar* sulolasi davrida Marv shahri Xurosonning ilm-fan yuksalgan hududlardan biri bo'lgan. Marv madrasalarida ham bir qancha mashhur farg'onalik fiqhshunos olimlar va adiblar ta'lim olganlar. Jumladan, shunday olimlardan biri Axsikatda tug'ilib o'sgan, va Marvda tahsil olgan olim Abul Vafo Muhammad ibn Muhammad ibn Qosim Axsikatiydir (vaf. 1126). U adib va shoir, imom, til va tarix olimi bo'lib, tarix va adabiyot ilmlari bilimdoni sifatida shuhrat qozongan. Abul Vafo al-Axsikatiy arab tili ilmini mukammal bilgan olimlardan bo'lgan[8].

Shuningdek, Marv madrasalarida ta'lim bergan va xurosonlik olimlarga ustozlik qilgan bir qator farg'onalik olimlar ham mavjud bo'lgan. Jumladan, shunday shaxslar sirasiga Muhammad Axsikatiyning ukasi Zu-l-Fazoil Ahmad ibn Muhammad ibn Qosim Axsikatiyni kiritish mumkin (456/1073-528/1134). U o'sha davrda yashab ijod qilgan adib va shoir bo'lib, adab, nazm, nasr va tarixnavislikda nom qozongan, hamda sultonlar devoni kotibi sifatida faoliyat yuritgan. U ko'plab xurosonlik olimlarga ustozlik qilgan. Olimning bir qancha asarlari mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat: «Kitob fi-t-tarix» (Tarix sohasiga oid kitob), «Kitob fi qavlihim» (Ularning so'zlari haqidagi kitob), «az-Zavoid fi sharh soqat az-zand l-il-Ma'riy»[9].

Yana shunday farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlardan biri Abu Rashod Ahmad ibn Muhammad ibn al-Qosim Axsikatiydir (406/1067-535/1140). U faqih tilshunos, adib va tarixchi olim bo'lib, ko'plab hadislar bilgan va bir qator xurosonlik ulamolarga ustozlik qilgan. Shular qatorida Muhammad ibn Ya'qub ibn Abu Tolib al-Kosoniy (480/1088-555/1160) ham Saraxsda yashab ijod qilgan.

Xorazmshohlar davlati XI asr oxiri va XII asrning ikkinchi yarmiga qadar saljuqiylar davlatiga tobe bo'lsa-da, Xorazmda ham ilm-fan rivojlangan. Bu davrda Xorazm fiqh maktabi Balx, Saraxs, Marv, Juzjon hanafiya fiqh maktablarining davomi sifatida mustaqil shakllangan, hatto, Farg'ona O'sh, O'zgand fiqh maktabi vakillari





qarashlariga ta'sir ko'rsatgan[10]. Buning sababi, XIII asr boshida Muhammad Xorazmshoh Qoraxoniylar davlatini o'z mamlakati tasarrufiga qo'shib olib[11], bu yerdagi mashhur fiqhshunos olimlarni Samarqand va Urganchga olib ketgan. Xorazm hukmdori farg'onalik olimlarga hurmat-ehtirom ko'rsatib, ularni yuksak shayx ul-islom, qozikalon va boshqa shu kabi mansablarga tayinlagan[12]. Xususan, buni taniqli adib Malikul-ulamo Abul-Muzaffar Mas'ud ibn Muhammad ibn Sadid Xo'jandiyni lashkarboshi bo'lganligida ko'rish mumkin[13]. Bu holat shundan dalolat beradiki, Muhammad Xorazmshoh o'z davrida ilm-fanni qadrllovchi ma'rifatparvar hukmdor bo'lgan.

Shuningdek, xorazmshohlar zamonida faoliyat ko'rsatgan mashhur fiqhshunos olim Imom Burhoniddin Abu-l-Hasan Ali ibn Abu bkar ibn Abduljalil al-Farg'oniy al-Marg'inoniydir (1123-1197). Burhoniddin Marg'inoniy o'z davrida hanafiya mazhabi buyicha buyuk faqih darajasiga ko'tarilgan va shayxu-l-islom laqabiga sazovor bo'lgan. Uning «Hidoya» asari mashhur bo'lib, deyarli barcha tillarda tarjima qilingan[14]. Yana shunday axsikatlik olimlardan biri Asiriddin Axsikatiy (vaf. 1184) xorazmshohlar zamonasida yashagan atoqli shoir va ulamolardan biri bo'lgan. Uni «Sultonulfuzalo» («fozillar sultoni») deb atashgan. Manbalarda yozilishicha, u riyoziyot, kimyo, tib, astronomiya, ilmi nujum, falsafa va grammatika sohalarida mukammal bilimga ega bo'lgan. Asiriddin Abul Fazl Muhammad ibn Tohir Axsikati asli Farg'ona viloyatining Axsikat* shahridan edi. U, g'azalni qadrllovchi homiylarni Ozarbayjondan topgan. Bu yerda Hoqoniy bilan tanishgan va unga ergashib qasidalar yozgan. Uning bizgacha faqat sakkiz ming baytga yaqin hajmdagi devoni yetib kelgan[15].

Farg'ona fiqh maktabining yirik vakillaridan yana biri Faqih Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Xusomiddin al-Axsikatiydir (vaf. 624/1227). U Abu Abdulloh kuniyasi bilan ham tanilgan. Xusomiddin al-Axsikatiy O'rta asrga oid bir qator manbalarda shayx maqomiga ega bo'lgan imom, fiqh ilmining usul va furu' bobini chuqur egallagan zot deb ta'riflangan. Xusomiddin al-Axsikatiy asosan usul al-fiqh ya'ni fiqh ilmining asoslari, manbalari bilan shug'ullangan. Uning fiqh ilmiga bag'ishlangan bir qancha asarlari mavjuddir. Ular «al-Muxtasar fi Usul al-fiqh» (Fiqh ilmi asoslari haqidagi qisqartma), «Miftah ul-Usul» (Fiqh ilmi asoslari kaliti), «G'oyat ut-Tahqiq» (Izlanish cho'qqisi), «Daqai'q al-Usul-va-t-Tabyin» (Manbalardagi aniqlik va anglatish) asarlaridan iboratdir[16].





Shuningdek, bir qator fargʻonalik fiqhshunos olimlar yaʼni Abu-l-Muzaffar Bahrom al-Mushtab ibn Muhammad ibn Usoma ibn Zayd ibn an-Nuʼmon ibn Muhammad ibn Soʻfiyon al-Fargʻoniy (414/1024-486/1093), Abu Bakr Muhammad ibn Hamavayh ibn Hadid ibn Horun ibn Idris ibn Abdulloh al-Fargʻoniy va Abdulloh ibn Ali ibn Soin ibn Abdujalil ibn al-Xalil ibn Abu Bakr al-Fargʻoniylar (551/1156-616/1220) Bagʻdodda faoliyat koʻrsatib, asosan muhaddislik bilan shugʻullanganlar.

Bundan tashqari, fiqhshunos olimlardan yana biri Alouddin Kosoniy (vaf. 1191) hisoblanadi. Uning toʻliq ismi Abu Bakr ibn Ahmad al Kosoniy boʻlib, Malik al-ulamo (Olimlar podshohi) laqabi bilan mashhur boʻlgan hanafiy faqihidir. U Koson* shahrida tugʻilganligi sababli ham unga Kosoniy nisbasi berilgan. Alouddin Kosoniy Buxoroga kelib u yerda ustozim Imom Alouddin Muhammad ibn Abu Ahmad as-Samarqandiydan (vaf. 539/1144) taʼlim olgan. U ustozining «Tuhfatu-l-fuqaho» nomli asariga sharh yozgan. Shuningdek, u oʻzining shoh asari boʻlgan «Badon»ni yozib uni ustoziga taqdim etgan. Alouddin Kosoniy faoliyati davrida turli mamalakatlariga yaʼni Koʻnʼyo va Halab kabi shaharlarga safar qilib, u yerda madrasalarda taʼlim bergan[17].

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oʻzbekistonning boshqa hududlari kabi Fargʻona vodiysilik olimlar ham mintaqa ilm-fani rivojlanishiga katta xissa qoʻshganlar. Xususan, Fargʻona fiqh maktabi vakillarining ilmiy merosini oʻrganish bugungi kun uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, islom fiqhing ilmiy-amaliy nuqtai-nazaridan tahlil va tadqiq etish bugungi huquqiy, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati kirish jarayonida katta amaliy ahamiyatga ega. Negaki, islom huquqiy taʼlimoti milliy davlatchiligimizning huquqiy asoslarini shakllanishida yaqin oʻtmishimizgacha oʻziga xos oʻrin tutib kelgan.

Shuningdek, islom dini va fiqhini rivojlantirishda, targib va tashvik qilishda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk fakih allomalarimiz oʻz ilmiy asarlari bilan huquqiy merosimiz xazinasiga ulkan hissa qoʻshib ketganlar. Shu manoda taʼkidlash mumkinki, islomiy meyorlar va fiqhiy tartib normalari xalqimizning hayotiga shu qadar singib ketganki, xalqimizning milliy ruhiyatini islomiy urf-odat va hissiyotlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun islom huquqi, ayniqsa buyuq faxrlarimiz yaratgan huquqiy asarlar biz uchun umuman bugungu huquqiy, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati kirish jarayonida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun,





shuningdek, mamlakatimizda qonunchilik tizimini rivojlantirish borasida tuganmas xazina hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Раҳмонов А. Ислом ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ, 2007. – 441 б.
2. Шарль Р. Мусулманское право / Пер. с франц. С. И. Волка. – Москва, 1959. – С. 11.
3. Торнау Н. Н. Особенности исламского права. – Дрезден, 1880. – С. 13.
4. Беккин Р. И. Исламская экономическая модель и современность. – Москва, 2010. – С. 24.
5. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: «Адолат», 2003. – Б. 101.
6. Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: «Фан», 2009 – Б. 67.
7. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи... – Б. 105.
8. Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний... – Б. 52.
9. Ўша бетда.
10. Хидиров З. Хоразмшоҳлар давлатининг ташкил топиши, давлат ва ҳуқуқ тизими. Тарих фанлари номзоди дис.. – Тошкент, 2009. – Б. 43.
11. Давидович Е.А. Нумизматический сборник часть вторая труды государственного исторического музея. Выпуск XXVI. – М., 1957. – С. 107; Бартольд В.В. Сочинения. I т. – М., 1963. – С. 431; Караев О. История Караханидского Каганата (X – нач. XIII вв). – Фрунзе, 1983. – С. 189; Бунёдов З.М. Ануштагин –Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231). – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1998. – Б. 140; Саидов Ш. Хоразмшоҳлар –Ануштакинлар давлатининг юксалиши ва ҳалокати / Тошкент Давлат Шарқшунослик Институти. – Тошкент, 2008. – Б. 32.
12. Хидиров З. Хоразмшоҳлар давлатининг ташкил топиши, давлат ва ҳуқуқ тизими... – Б. 43.





13. Бунёдов З.М. Ануштагин –Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231). – Б. 153.
14. Ўзбекистон буюк алломалар юрти. 1–китоб. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 210.
15. Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. – Тошкент: «Фан», 1967. – Б. 23; Крымский А.Е. Низами и его современники. – Баку: «Элм», 1981. – С. 379; Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний... – Б. 52.
16. Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний... – Б. 85.
17. Ўзбекистон буюк алломалар юрти.. . – Б. 156.

